

AKSIOLOGIK YONDASHUV ORQALI INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALARDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Axmedova Dildora Abdiraxim qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida ingliz tili ta'limi mazmuniga aksiologik (qadriyatshunoslik) yondashuvni integratsiya qilish orqali o'quvchilarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Til shunchaki fikr almashish quroli emas, balki madaniy-ma'naviy qadriyatlarni translyatsiya qiluvchi ijtimoiy fenomen sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini oshirish bilan bir qatorda, ularda o'zga xalqlar madaniyatiga nisbatan bag'rikenglik, stereotiplardan xoli fikrlash va qadrlash ko'nikmalarini rivojlantirish modeli taklif etilgan. Shuningdek, dars jarayonida tolerantlik madaniyatini yuzaga keltiruvchi kognitiv, aksiologik va xulq-atvor mezonlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: til ta'limi, ingliz tili, aksiologik yondashuv, tolerantlik madaniyati, bag'rikenglik, madaniyatlararo kompetensiya, ma'naviy qadriyatlar, pedagogik imkoniyatlar.

DIDACTIC POTENTIALS OF DEVELOPING A CULTURE OF TOLERANCE IN STUDENTS THROUGH AN AXIOLOGICAL APPROACH IN ENGLISH LESSONS

Akhmedova Dildora Abdirakhim qizi

*Lecturer at the Department of Foreign Languages, Namangan State Pedagogical
Institute*

Abstract. This article explores the pedagogical potentials and methodological foundations of developing a culture of tolerance among EFL (English as a Foreign Language) learners by integrating an axiological (value-based) approach into the educational content. Language is analyzed not merely as a tool for communication, but as a social phenomenon that transmits cultural and spiritual values. Along with enhancing students' linguistic competences, the study proposes a model for developing tolerance, stereotype-free thinking, and appreciation toward foreign cultures. Furthermore, the cognitive, axiological, and behavioral criteria that foster a culture of tolerance during the language learning process are scientifically substantiated.

Keywords: language education, English language, axiological approach, culture of tolerance, open-mindedness, intercultural competence, spiritual values, pedagogical potentials.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Ахмедова Дильдора Абдирахимовна

*Преподаватель кафедры иностранных языков Наманганского
государственного педагогического института*

***Аннотация.** В данной статье исследуются дидактические возможности и методологические основы формирования культуры толерантности у студентов высших учебных заведений посредством интеграции аксиологического (ценностно-ориентированного) подхода в содержание обучения английскому языку. Процесс иноязычного образования анализируется не просто как инструмент развития лингвистических компетенций, а как социальный феномен, транслирующий национальные и общечеловеческие духовно-нравственные ценности. Наряду с повышением языковой подготовки будущих специалистов, авторами предлагается модель развития толерантности, мышления, свободного от стереотипов, и уважения к чужим культурам. В работе научно обоснованы когнитивные, мотивационно-аксиологические и поведенческие критерии, способствующие становлению культуры толерантности в процессе изучения иностранного языка.*

***Ключевые слова:** высшее образование, английский язык, аксиологический подход, студенты, культура толерантности, веротерпимость, дидактические возможности, интеграция ценностей.*

KIRISH

Til – shunchaki fikr almashish quroli bo'lmay, balki millat borligini ko'rsatuvchi, uning o'ziga xosligini hamda ma'naviy-madaniy xazinasini kelajak vorislariga o'tkazuvchi bosh mezon va daxlsiz ko'prikdir. Zamonaviy globallashuv va integratsiyalashgan dunyo sharoitida chet tillarini o'rganish jarayoni faqatgina quruq lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish chegarasidan chiqdi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'zlashtirish o'zga xalqlar madaniyati, madaniyatlararo muloqot hamda ijtimoiy qadriyatlar tizimini tahlil qilish, ularni anglash va qadrlash vositasiga aylandi. Aynan shu sababli, zamonaviy til ta'limi tizimida aksiologik (qadriyatshunoslik) tamoyillarga tayanib, ma'naviy qadriyatlarni fan mazmuniga singdirish va ularni uyg'unlashtirish o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi fundamental metodologik talab hamda bugungi kun metodikasining eng dolzarb vazifasi sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lisoniy ta'lim mazmuniga qadriyatshunoslik mezonlarini singdirish hamda masalaning sotsiomadaniy qirralarini o'rganish global ilmiy makonda keng tadqiq etilgan fundamental yo'nalishlardan hisoblanadi.

K. Kramersch konsepsiyasi. Mashhur tadqiqotchi K. Kramersch lisoniy strukturani muayyan etnik-madaniy makondan ayri holda tasavvur qilib bo'lmashligini asoslaydi. Olimning fikricha, til birliklari shunchaki formal-grammatik qoliplar yig'indisi bo'lmay, jamiyatning tarixiy tafakkuri, sivilizasion evrilishlari hamda ma'naviy qarashlarini muhrlovchi ijtimoiy ko'zguidir. Binobarin, uning ilmiy konsepsiyasi dars jarayonida diskursiv-madaniy malakalarni shakllantirish orqali o'quvchilar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni translyatsiya qilish qonuniyatlarini ochishda tayanch nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

B. Tomlinson metodologiyasi. O'quv-metodik adabiyotlarni modellashtirish sohasida professional yondashuvga ega B. Tomlinson qarashlari ushbu mavzuni metodik jihatdan boyitadi. Tadqiqotchi darslik va qo'llanmalarni loyihalashda faqat mexanik-funksional ko'nikmalarga tayanib qolmasdan, kontentga estetik va ma'naviy-tarbiyaviy o'lchovlarni olib kirish shartligini himoya qiladi. Uning xulosalari shuni ko'rsatadiki, ichki mazmuni yuksak insoniy g'oyalar bilan sug'orilgan ta'limiy materiallar talabalarda fanga nisbatan ijobiy kognitiv reaksiyani yuzaga keltirib, ichki drayv va motivasion barqarorlikni ta'minlaydi. Mazkur g'oya maqolamizda taklif etilayotgan aksiologik modelning hayotiyiligini isbotlashda muhim argument hisoblanadi.

J. P. Lantolf va S. L. Thorne sotsiomadaniy nazariyasi. Til o'zlashtirish fenomenini ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslashda J. P. Lantolf hamda S. L. Thorne (2006) hammuallifligidagi "Sociocultural Theory and the Genesis of Second Language Development" fundamental tadqiqoti alohida qimmatga ega.

L. Vygotskiy maktabining gumanistik tamoyillariga tayanuvchi ushbu nazariya shaxsning kognitiv va nutqiy kamoloti bevosita u yashab turgan ijtimoiy reallik hamda madaniy-aksiologik muhit ta'sirida determinantlanishini kafolatlaydi. Ushbu asar mantiqi tadqiqotimiz doirasida chet tili darslarining aksiologik arxitektonikasini hamda qadriyatli yo'nalishlarning shaxsiy identiklikni

shakllantirishdagi funksiyalarini tizimli asoslashda bosh uslubiy qo'llanma vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Til va madaniyat fenomenlarining deterministik xususiyatga ega bo'lgan o'zaro invariant bog'liqligi ularning birini ikkinchisidan ajratgan holda konseptual tahlil etish imkoniyatini istisno qiladi. Har bir lingvistik tizim o'zida muayyan etnosning aksiologik paradigmasini, ijtimoiy-tarixiy an'analarni va dunyoning mental manzarasini aks ettiruvchi kumulyativ manba hisoblanadi.

Xorijiy tillarni o'zlashtirish arxitekotnikasida quyidagi qatlamlar muhim lingvodidaktik ahamiyat kasb etadi:

lingvomadaniy qadriyatlar – til sohiblarining tarixiy-madaniy merosi, etnografik o'ziga xosliklari va urf-odatlari lingvistik birliklar semantikasini dekodlashtirish orqali konseptuallashtiriladi;

deontologik (aksiologik) qadriyatlar – verbal va noverbal kommunikatsiya etiketiga rioya qilish, madaniyatlararo interaksiyada bag'rikenglik hamda empatiya fenomenlarini shakllantirishga xizmat qiladi;

estetik qadriyatlar – badiiy-diskursiv matnlar va san'at namunalari vositasida o'rganilayotgan tilning ichki go'zalligi, ekspressiv-emotsional imkoniyatlarini anglashga zamin yaratadi;

ijtimoiy-madaniy qadriyatlar – transformatsiyalashib borayotgan ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvni va variativ kommunikativ muhitda kognitiv moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Mazkur omillar majmui retsipiyentlarda faqatgina tor doiradagi lingvistik kompetensiyalarni emas, balki tizimli sotsiomadaniy va pragmalingvistik deesposoblikni shakllantirish imkonini beradi.

Glottodidaktika jarayonida aksiologik komponentni tizimli ravishda implementatsiya qilish (integratsiyalash) uchun quyidagi metodologik instrumentalriylardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: komparativ-lingvokulturologik tahlil metodi – o'quvchilarning avtoxton (o'z) madaniyati va o'rganilayotgan til lingvokulturologiyasini qiyoslash orqali universal va idioetnik qadriyatlarni nazariy jihatdan demarkatsiya qilish; aksiologik refleksiya va

verifikatsiya usuli – ta'lim oluvchilarning madaniyatlararo divergentsiyalarni anglashi va qiyosiy tahlil qilishi asosida shaxsiy dunyoqarash pozitsiyalari va mental yo'nalishlarini modullashtirish; germeneytik-diskursiv metod – badiiy matnlar semantikasini lingvostranovedcheskiy jihatdan tahlil qilish orqali madaniyat fenomenlarini yanada chuqurroq ekstrolatsiya qilish; interaktiv-simulyatsion va rolli modellar – hayotiy va pragmatik kommunikativ vaziyatlarni didaktik modellashtirish orqali real lingvokulturologik muhitga ijtimoiy-kommunikativ moslashish ko'nikmalarini shakllantirish; evristik loyihalash metodologiyasi – ta'lim oluvchilarning mustaqil izlanishlari va tadqiqot traektoriyalari vositasida o'rganilayotgan til tizimidagi lingvokulturemalarni konseptual o'rganishini faollashtirish.

Lingvomamlakatshunoslikka oid materiallarni ta'lim jarayoniga sinergetik tarzda integratsiya qilish kognitiv motivatsiyaning ortishiga xizmat qiluvchi katalizator hisoblanadi. Bundan tashqari, bu yondashuv madaniyatlararo tolerantlikni, ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga nisbatan aksiologik mas'uliyatni shakllantiradi hamda globallashtirish sharoitida geterogen (turlicha) madaniyat vakillari bilan diversifikatsion va samarali muloqot olib borish imkonini kengaytiradi. Til o'qitishda qadriyatlar paradigmasining mavjudligi nafaqat lingvistik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy subkompetentligini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu munosabat bilan, zamonaviy inoyatchilik ta'lim tizimiga aksiologik yondashuvga asoslangan innovatsion glottodidaktik modellar va dasturlarni implementatsiya qilish dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatlararo interaktiv kompetensiyani, tilga oid ijobiy persepsiyani, deontolog-kommunikativ etiket va xulq-atvor me'yorlarini oliy darajada o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida quyidagi lingvodidaktik va pragmatik manbalardan foydalanish tavsiya etiladi:

autentik badiiy va lingvokulturologik matnlar – turli adabiy janrlar va narrativlar vositasida maqsadli lingvokulturologik muhitning konseptual yadrosini ochib berish;

vizual va lingvovizual mediaresurslar (kino va videokontent) – turli millat vakillarining real verbal va noverbal xulq-atvorini aks ettiruvchi kontent orqali kross-kultur persepsiyani rivojlantirish;

diskursiv-jurnalistik materiallar (OAV) – davriy matbuot, raqamli media va siyosiy-ijtimoiy maqolalar orqali zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-aksiologik dinamikasini tadqiq etish;

lingvomadaniy va etnografik tadbirlar (festivallar) – ta'lim oluvchilarga milliy an'analar, urf-odatlar va madaniy kodlar bilan bevosita amaliy tanishish imkoniyatini yaratish;

raqamli va virtual ta'lim muhiti (EdTech) – onlayn kurslar, raqamli ta'lim platformalari va interaktiv mobil ilovalar vositasida aksiologik kontentni masofaviy va individual o'zlashtirish traektoriyasini kengaytirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim paradigmasida aksiologik yondashuvning qo'llanilishi shaxsning kognitiv-intellektual va ma'naviy-ruhiy olamini kompleks tarzda rivojlantirishga, uning ichki qadriyatlar tizimini tarbiyalashga yo'naltirilgan gnoseologik fenomendir. Aksiologik yondashuv ta'lim muhitida quyidagi tizimli funksiyalarni verifikatsiya qiladi (ta'minlaydi):

ta'lim oluvchining individual-subyektiv qadriyatlar tizimini, ya'ni uning milliy va madaniy o'zlikni anglash hamda shaxsiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish;

konseptual va mazmunli til o'rganish jarayonini ta'minlash, ya'ni lingvistik birliklar ortida yashiringan madaniy-ma'naviy semantika va lingvokulturologik substratni anglash;

pedagog va retsipiyent (o'quvchi) o'rtasida samarali ijtimoiy-madaniy va kommunikativ integratsiyani ta'minlovchi interdisiplinar ko'prik va didaktik sinergiyani konstruirlash (qurish).

Aksiologik paradigma negizida xorijiy til darslarini modellashtirish bosqichlari ta'lim jarayonining takomillashgan pedagogik arxitektonikasini ta'minlashga xizmat qiladi:

aksiologik kontent seleksiyasi (tanlash) – o'quv diskursiga tatbiq etiladigan qadriyatli determinantlarning milliy va transmilliy (umuminsoniy) xarakterga ega bo'lishi (xususan, tolerantlik, gumanizm, integratsiya, ijtimoiy mas'uliyat va etika) nazarda tutiladi;

substansial-mazmuniy muvofiqlashtirish – didaktik va til materiallari (matnli narrativlar, interfaol muloqot mavzulari) belgilangan aksiologik me'yorlar bilan semantik jihatdan sinergetik aloqadorlikka keltiriladi;

interaktiv-faoliyatli instrumentalizatsiya – ta'lim oluvchilarda aksiologik refleksiyaning faollashtiruvchi, qiyosiy-tahliliy va baholovchi operatsiyalarni bajarishga undaydigan evristik metodlar (rolli o'yinlar, keys-stadi, muammoli vaziyatlar simulyatsiyasi) tizimi joriy etiladi;

aksiologik-kognitiv refleksiya – darsning yakuniy bosqichida retsiptentlar o'zlashtirilgan lisoniy birliklar vositasida madaniy konseptlarga nisbatan subyektiv-shaxsiy munosabat tahlilini amalga oshiradilar.

Ta'lim oluvchilarda madaniyatlararo tafakkur darajasining yetarli emasligi diskursiv jarayonlarda qiyosiy-komparativ va kommunikativ yo'naltirilgan metodologiyani faol qo'llashni taqozo etadi.

Ingliz tili darslarida aksiologik (qadriyatshunoslik) prinsiplarga tayanib, o'quvchilarda tolerantlik (bag'rikenglik) madaniyatini shakllantirish murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, u quyidagi tizimli imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi:

- tadqiqot doirasida xorijiy tilni o'qitish darsliklaridagi matnlar interpretatsiyasi qayta ko'rib chiqildi. Tolerantlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun kontentga madaniy xilma-xillik, o'zga millat urf-odatlarini va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi diskursiv materiallar kiritildi.

-talabalarda tolerantlik madaniyatining shakllanganlik darajasini o'lchash uchun dars jarayonida interfaol keys-stadi (Case-study), rolli o'yinlar (Role-play) hamda qiyosiy-madaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Bunda o'quvchilar nafaqat til o'rgandilar, balki global muammolarga nisbatan tolerant munosabat bildirishni amalda mashq qildilar.

Aksiologik markerlarni interpretatsiya qilishdagi kognitiv dissonanslar (noto'g'ri tushunish) kommunikativ to'siqlarga olib kelishi mumkin. Qadriyatlar semantikasini empirik va pragmatik misollar yordamida eksplikatsiya qilish pedagogik muloqot subyektlari o'rtasidagi intersubektiv aloqani mustahkamlaydi. Didaktik materiallarda aksiologik komponent mavjud bo'lmagan taqdirda, o'quv-metodik majmualarni va o'quv dasturlarini glottodidaktik rekonstruksiya qilish zarurati tug'iladi. Lisoniy va madaniy divergentsiyalar (farqlar) sotsiomadaniy konfliktlarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud bo'lib, bunday destruktiv holatlarni o'qitishda oldindan prognozlashtirish va ularning oldini oluvchi metodik yechimlar algoritmini ishlab chiqish, shu asosda retsiyentlarda kross-kultur bag'rikenglik va deontologik kompetensiyalarni shakllantirish lozim.

XULOSA

Aksiologik komponentni xorijiy tillarni o'qitish tizimiga implementatsiya qilish zamonaviy glottodidaktikaning ustivor nazariy-metodologik muammolaridan biri bo'lib, ushbu paradigma ta'lim oluvchilarning pragmalingsvistik qobiliyati bilan bir qatorda ularning madaniy-etik va konseptual dunyoqarashini shakllantirishni verifikatsiya qiladi. Shu munosabat bilan, istiqbolda innovatsion lingvodidaktik texnologiyalarni loyihalash, o'quv-metodik kontentni aksiologik me'yorlar asosida modernizatsiya qilish hamda ta'lim makonida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini kompleks rivojlantirish tizimli tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dyui Dzh. Demokratiya va ta'lim / Tarjimasi: Yu.I. Turchaninova. – M.: Pedagogika-Press, 2000.
2. Gal'skova N.D. Chet tillarni o'rgatish nazariyasi. Lingvodidaktika va metodika: o'quv qo'llanma. – M.: Akademiya, 2006.
3. Passov E.I. Kommunikativ metod orqali chet tilida gapirishni o'rgatish. – M.: Prosveshcheniye, 1991.
4. Sepir E. Tanlangan tilshunoslik va madaniyatshunoslik asarlari / Tarjimasi: A.E. Kibrik. – M.: Progress, 1993.
5. Slastenin V.A., Chizhakova G.I. Pedagogik aksiyologiyaga kirish: Yuqori o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – M.: Akademiya, 2003.
6. Xoll E. Chet el fuqarosini so'zlarsiz tushunish / Tarjimasi: E.M. Spichevaya. – M.: Veche, 1997.